



MUTANOSIBLIK PRINSIPINING TUSHUNCHASI, IJTIMOIIY-HUQUQIY TABIATI VA KONSTITUTSIYAVIY AHAMIYATI

Tosheva Ozoda Karim qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

e-pochta: toshevaozoda003@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqiy davlatning asosi bo'lgan mutanosiblik prinsipining mohiyati va tarixiy rivojlanishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu tamoyilning inson huquqlarini himoya qilishdagi o'rni hamda O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasida mustahkamlanishi qiyosiy o'rganilgan. Maqolada davlat vakolatlarini cheklashda mutanosiblik testining ahamiyati va uni amaliyotda qo'llash masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: mutanosiblik prinsipi, konstitutsiyaviy huquq, huquqiy davlat, inson huquqlari, tahlil testi, adolat.

Аннотация: В статье анализируются сущность и историческое развитие принципа соразмерности как основы правового государства. В исследовании рассматривается роль этого принципа в защите прав человека и его закрепление в обновленной Конституции Узбекистана. Освещается значение теста на соразмерность в ограничении государственных полномочий и вопросы его практического применения.

Ключевые слова: принцип соразмерности, конституционное право, правовое государство, права человека, тест на соразмерность, справедливость.

Abstract: This article analyzes the essence and historical development of the principle of proportionality as the basis of the rule of law. The study examines the role of this principle in the protection of human rights and its consolidation in the updated Constitution of Uzbekistan. The importance of the proportionality test in limiting state powers and the issues of its practical application are highlighted.



Keywords: *principle of proportionality, constitutional law, rule of law, human rights, proportionality test, justice.*

KIRISH

Zamonaviy davlat boshqaruv tizimida fuqarolarning ishonchini mustahkamlash va davlat organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlash korrupsiyaga qarshi siyosatning va huquqiy davlat qurishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Huquqiy davlat g'oyasining markazida esa davlat hokimiyati va inson huquqlari o'rtasidagi oqilona muvozanatni saqlash masalasi turadi. Mutanosiblik prinsipi zamonaviy konstitutsiyaviy huquqning eng fundamental va keng qamrovli tushunchasi bo'lib, u aynan davlatning diskretion vakolatlarini jilovlash va inson huquqlarini cheklashda davlat choralari ko'zlangan qonuniy maqsadga erishish uchun zarur, mos va yetarli bo'lishini ta'minlovchi universal mexanizm sanaladi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar doirasida "Inson - jamiyat - davlat" tamoyilini hayotiy voqelikka aylantirish maqsad qilingan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 20-moddasida mutanosiblik prinsipining oliy yuridik kuchga ega norma sifatida mustahkamlanishi mamlakat huquq tizimida "asoslantirish madaniyati"ni (culture of justification) shakllantirishga xizmat qiladi. Garchi ushbu prinsip milliy qonunchilikda o'z ifodasini topgan bo'lsa-da, uni sud amaliyotida o'lchash va baholash mexanizmlari, xususan, jahon standartlaridagi to'rt bosqichli test tahlilini joriy etish masalasi o'ta dolzarbligicha qolmoqda.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida mutanosiblik prinsipining nazariy-huquqiy genezisi, uning strukturaviy elementlari va milliy hamda xalqaro huquqdagi o'rni o'rganildi. Ushbu maqolani tayyorlashda **tahlil qilish, qiyosiy-huquqiy tahlil, tarixiy izchillik, tizimlilik va umumlashtirish metodlaridan** foydalanildi. Prinsipning shakllanishi antik davr falsafasi hamda Prussiya huquq tizimi misolida tarixiy metod orqali tahlil qilingan bo'lsa, zamonaviy qo'llanilishi Germaniya, Fransiya va O'zbekiston qonunchiligi misolida qiyosiy metod yordamida ochib berildi.



NATIJALAR

Mutanosiblik prinsipining tarixiy genezisi va evolyutsiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu prinsipi uzoq tarixiy shakllanish davrini bosib o'tgan umumhuquqiy tamoyildir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, uning ilk izlarini **Xammurapi qonunlaridan** (miloddan avvalgi 1792-1750 yillar) topish mumkin, bu yerda mutanosiblik **jazo choralari va zararni qoplash adolatiga** tegishli bo'lgan.[3]

Antik davrda **Aristotel** birinchi bo'lib "mutanosiblik" atamasini qo'llab, uni **taqsimlovchi adolatning asosi** deb hisoblagan. Uning fikricha, adolat — bu mutanosiblikdir, adolatsizlik esa nomutanosiblikdir. O'rta asrlarda ushbu g'oya Sitseron, Avliyo Avgustin va Foma Akvinskiy tomonidan "adolatli urush" (just war) va jazo tayinlash kontekstida rivojlantirildi. **Foma Akvinskiy** birinchi bo'lib mutanosiblikni hozirgi ko'p bosqichli tartibga yaqin tarzda — vakolatli subyekt, qonuniy maqsad va zaruriyat mezonlariga ajratib ko'rsatgan.

Mutanosiblikning zamonaviy ma'nosi XVIII asr oxiridagi Prussiya huquq tizimi bilan bog'liq. 1794-yildagi **Prussiya shtatlari uchun umumiy davlat qonunlarida** ilk bor "zaruriy choralar" (die nöthigen Anstalten) qoidasi o'rnatildi. XIX asrda Prussiya Oliy ma'muriy sudi o'z qarorlarida ma'muriyatning choralari ko'zlangan maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi kerakligini belgiladi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi mutanosiblikni inson huquqlarini himoya qilishning markaziy mexanizmiga aylantirdi. Bugungi kunda jahon konstitutsiyaviy yurisprudensiyasida mutanosiblik tahlili quyidagi to'rt bosqichli testdan iborat metodologik vositaga aylangan:

1. **Qonuniy maqsad (Legitimate aim):** Cheklovchi chora konstitutsiyaviy jihatdan tasdiqlangan va ijtimoiy muhim maqsadni ko'zlashi shart.
2. **Yaroqlilik (Suitability):** Tanlangan vosita ko'zlangan maqsadga erishish uchun mantiqan yaroqli bo'lishi, hech bo'lmaganda unga qisman xizmat qilishi (conducive) kerak.



3. **Zarurat (Necessity):** Hukumat maqsadiga erishish uchun bir xil darajada foydali bo'lgan, ammo inson huquqlariga eng kam daxl qiladigan (least intrusive) o'zga muqobil vosita mavjud bo'lmash kerak.

4. **Qat'iy ma'nodagi mutanosiblik (Proportionality in strict sense / Balancing – “Verhältnismäßigkeit im engeren Sinne”):** Olinayotgan ijtimoiy foyda shaxs huquqiga yetkazilayotgan zarardan (yuklamadan) og'irroq bo'lishi lozim. Bu jarayon nemis huquqida *Abwägung* (muvozanatlash) deb ataladi.

MUHOKAMA

Mutanosiblik prinsipining zamonaviy talqini Ronald Dvorkinning “Huquqlarga jiddiy yondashish” asari bilan chambarchas bog'liq. Dvorkin huquqni shunchaki “qonunlar modeli” emas, balki **“prinsiplar modeli”** deb ta'riflaydi. Uning fikricha, qonunlar mutlaq va “yo hamma narsa, yo hech narsa” tarzida qo'llanilsa, prinsiplar **“vazn”** (muhimlik darajasi) o'lchamiga ega. Mutanosiblik aynan mana shu vaznlarni muvozanatlashtirish (balancing) vositasi hisoblanadi.

O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasi 20-moddasida ushbu prinsipning mustahkamlanishi davlat hokimiyati faoliyatini inson huquqlari bilan cheklashda yangi davrni boshlab berdi. Konstitutsiyaviy normaga ko'ra, davlat choralari **qonuniy maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak.**[1]

Ma'muriy huquq sohasida mazkur prinsip “Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida”gi qonunning 7-moddasida aks etgan bo'lib, u ma'muriy organlarga shaxslarga imkon qadar qiyinchilik tug'dirmaydigan choralarni tanlash majburiyatini yuklaydi. Shuningdek, Oliy sud Plenumining 2023-yildagi 16-sonli qarori sudlarga davlat organlari harakatlarini mutanosiblik nuqtayi nazaridan tekshirishni qat'iy talab qilib qo'ydi.[2] Bu korrupsiyaviy suiiste'molliklarning oldini olishda muhim to'siqdir, chunki korrupsiya ko'pincha diskretion vakolatlarning asossiz va nomutanosib qo'llanilishi natijasida yuzaga keladi.

Tadqiqot doirasida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi tushunchalari ham o'rganildi. Manfaatlar to'qnashuvi — bu shaxsning shaxsiy manfaatdorligi uning



xizmat majburiyatlarini bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vaziyatdir. Mutanosiblik prinsipi bu yerda profilaktik funksiyani bajaradi: agar mansabdor shaxs qaror qabul qilishda mutanosiblik testiga (zaruriylik va adolatli balans) rioya qilsa, shaxsiy manfaatlar ustun kelishi ehtimoli kamayadi. 2024-yilda qabul qilingan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun bu boradagi huquqiy bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Mutanosiblik prinsipi huquqiy davlatda adolatning eng asosiy o'lchovidir. U davlat hokimiyatining ixtiyoriyligini jilovlab, inson huquqlari va erkinliklarining daxlsizligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu prinsipning konstitutsiyaviy darajada tan olinishi davlat va fuqaro munosabatlarida inson manfaatlarining ustuvorligini amalda kafolatlaydi. Kelgusida milliy sud amaliyotida mutanosiblik testini yanada standartlashtirish va uning metodologik asoslarini rivojlantirish lozim. Bu nafaqat inson huquqlarini himoya qilishni kuchaytiradi, balki davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirib, jamiyatda adolatga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi 16- sonli qarori.
3. Christoffersen, J. Fair Balance: Proportionality, Subsidiarity and Primarity in the European Convention on Human Rights/ J. Christoffersen.- Boston: Martinus Nijhoff Publishers. – 2009 – 668 p.
4. Thomas Poole, "Proportionality in Perspective", 2010+ N.Z. L. Rev. 369 (tracing it to Plato and Cicero); Mark
5. Sarvinoz Sunnatillaeva, "Principle of Proportionality in Competition Law of the EU and Uzbekistan", 112-bet
6. Dworkin R. Taking Rights Seriously. Harvard University Press, 1977.
7. Flowers I.B. Proportionality in Constitutional and Human Rights Interpretation.